Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317154

Parabola deb, tekislikning har bir nuqtasidan fokus deb ataluvchi nuqtasigacha va direktrisa deb ataluvchi to`g`ri chiziqqacha bo`lgan masofalari o`zaro teng bo`lgan nuqtalarning geometrik o`rniga aytiladi.

Parabola tenglamasi: $y^2 = 2px$

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Ahlimirzayev, A.Rizayev, M.Ibragimov, M.Kuchkarov. Oliy matematika (1-qism)/ o’quv qo’llanma/ Toshkent “Turon-iqbol”, 2015.
2. Yo.U.Soatov. Oliy matematika 1-jild./darslik/ Toshkent, «O‘qituvchi», 1992.
3. M.Kuchkarov, B.Umaraliyev. Oliy ta’limda talabalarning mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirish. Республика илмий-амалий анжумани материаллари.– Андижон: АндМИ,2022
4. M.Kuchkarov. The importance of using applied mathematics In teaching process. Journal of Pedagogical Inventions and Practices //**ISSN NO: 2770-2367**//USA, **Date of Publication: 04-11-2022**

ANDIJON VILOYATIDA AHOLI TURMUSH DARAJASI VA DAROMADLARINI O’ZGARISH TENDETSIYALARI.

O.X.Maxmudov
TDIU Andijon fakulteti
“ijtimoiy gumanitar fanlari ”
kafedrasi professor, i.f.d
Mirzaraximov Ibroximjon
“Iqtisodiyot” yo’nalishi 1- kusr talabasi
E-mail: ***mirzaraximov.28@gmail.com***

Annotasiya. Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasida aholi turmush darajasini baholash, aholi farovonligi, turmush darajasi va sifatini yaxshilash, ularning daromatini oshirish, aholi daromadlari va iste’mol sarf xarajatlari orasidagi bog’liqliklarni o’rganish va mavjud holatni tahlil qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Aholi daromadlari, nominal daromat, real daromat, iste’molchi budjeti, aholi turmush darajasi, aholi xarajatlari, kambag’allik.

“Mavjud zaxira va imkoniyatlarimizni safarbar etgan holda kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1.6 barobarga oshirishga qaratilgan muhim vazifasi oldimizda turibdi. Shu tariqa respublika prezedenti Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek 2030-yilga borib aholi jon boshiga to’g’ri keladigan daromadni 4

Published: 28.03.2024
Cite this article: O.X.Maxmudov, Mirzaraximov Ibroximjon (2024). Andijon viloyatida aholi turmush darajasi va daromadlarini o’zgarish tendetsiyalari. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317154
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

ming dollardan oshirib, daromadi o’rtachadan yuqori bo’lgan davlatlar” qatoriga kirishga puxta zamin yaratgan bo’lamiz”.[7]

Ma’lumki har bir insonning moddiy va ma’naviy turmush imkoniyatlari ularning oladigan daromatlari hajmiga be’vosita bog’liq. Aholi daromad darajasi qancha yuqori bo’lsa, uning o’z e’htiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, bo’sh vaqtini madaniy tarzda o’tkazish imkoniyatini beradi. Daromat bevosita e’htiyojlarini qondirish manbai sifatida aholi hayotida muhum ro’l o’ynaydi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'kidlanganidek, 2021 yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadida qator vazifalar belgilandi, jumladan:

1. BMT Taraqqiyot dasturi, Jahon banki kabi qator xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda «O‘zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi» loyihasi ishlab chiqiladi.

2. Kambag‘allikni qisqartirish borasida kompleks yondashuv va nostandart usullar joriy etiladi ya'ni, kambag‘al aholining asosiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlash bo‘yicha Xalqaro ekspertlar bilan chuqur tahlil asosida, hisob-kitoblar yakuniga yetkaziladi va joriy yilning 1 martidan boshlab, «Aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati» joriy etiladi. Mazkur yondashuv aholining kambag‘al qatlamiga kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish bilan birgalikda ta'lim, sog‘liqni saqlash, kasb-hunarga o‘qitish, ichimlik suvi, energiya va yo‘l infratuzilmasi bilan bog‘liq kompleks muammolarni hal etishni nazarda tutadi.

3. Ehtiyojmand aholini to‘g‘ri aniqlash va shu asosda, ular bilan manzilli ishlash tizimi yaratiladi.

4. Kelgusi yildan to‘liq ishga tushadigan «Ijtimoiy reyestr»da «temir daftar»dagi barcha ma'lumotlar qamrab olinib, ehtiyojmand oilalarga 30dan ziyod ijtimoiy xizmatlar elektron shaklda ko‘rsatiladi.

5. Ijtimoiy kafolatlarni bir tizimga keltirib, ularni minimal me'yorlar darajasida bosqichma-bosqich ta'minlash bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi.

6. Hududlarning mavjud salohiyatini kambag‘allikni qisqartirish uchun safarbar etish yo‘llari ishlab chiqiladi, jumladan:

hududlardagi mavjud maxsus industrial zonalardagi loyihalarni amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etish choralari ko‘riladi;

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murijaatnomasi”, 30-dekabr 2020-yil, №271-272. http://lex.uz.

ehtiyojmand aholini kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha motivatsiya, ko‘nikma va moliyaviy ko‘mak tamoyili asosida har bir tuman va shahar bo‘yicha alohida dasturlar ishlab chiqiladi.

7. Yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘rgatish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning bandligini ta'minlash va doimiy daromad manbaini yaratishning yangi mexanizmini amaliyotga joriy etish bo‘yicha qaror loyihasi ishlab chiqiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida insonning yoki oilaning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari – bu ularning daromadlaridir. Daromadning inson ehtiyojlarini ta’minlanganlik darajasi uning siyosiy ishonchini ifoda etadi. Aholining daromadlari – bu aholi tomonidan ma’lum bir davrda olingan hamda iste’mol va jamg‘armalar uchun mo‘ljallangan pul va natura ko‘rinishidagi mablag‘lap yig‘indisidir. Pul yig‘indisida olingan daromad nominal daromad deyiladi.

Aholining pul daromadlari ishlovchilarning mehnatiga to‘langan haq ko‘rinishida kelib tushgan barcha pul mablag‘laridir: pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar va boshqa ijtimoiy to‘lovlar; shaxsiy mulkdan omonatlar bo‘yicha foizlar, dividentlar, rentalar ko‘rinishidagi daromadlar; aksiyalarni, qimmatbaho qog‘ozlarni, shaxsiy yordamchi xo‘jalik mahsulotlarini, turli buyumlarni va boshqa tovarlarni sotishdan kelgan tushumlar; ko‘rsatilgan xizmat uchun haq hamda sug‘urta to‘lovlari, olingan qarzlar, chet el valyutasini sotishdan olingan daromadlar va boshqalar shular jumlasidandir. Aholining natural ko‘rinishidagi daromadlari – bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlari: dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik mahsulotlari; turli buyumlar, xizmatlar va tomorqalardan, bog‘-poliz uchastkalardan,shaxsiy hovlilardan, uy xo‘jaliklaridan olinadigan natura ko‘rinishidagi mahsulotlar; shaxsiy va oilaviy iste’mol uchun tabiat ne’matlarini (tovar ko‘rinishiga ega bo‘lmagan) g‘amlab qo‘yishdan keladigan barcha tushumlar hamda mehnatga haq to‘lashning barcha tushumlar hamda mehnatga haq to‘lashning barcha turlari va tovar ko‘rinishidagi barcha ijtimoiy to‘lovlardir. Malumki har bir aholi vakili bu turdagi ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga qodir emas. Aholimizning ko’plab zarur ehtiyojlar bilan taminlanmagan yani-kambag’al qismi bu mamlakatimizning og’riqli nuqtalaridan biridir. So’ngi yillarda mamlakatimizda yandi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda “O’zbekiston-2030” strategiyasi doirasida aholi bandligi va daromadlari o’sishini ta’minlash, kambag’allikni qisqartirish borasida keng qo’lamli islohotlar olib borilmoqda. Insonlar o’z moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondishishi uchun albatta yaxshi ish joy va doimiy daromat egasi bo’lishi kerak. Bu mavzudagi asosiy muommolardan biri hozirgi kunda yurtimizda bo’sh ish o’rinlarnish yetishmasligi yoki bo’sh ish o’rinlariga aholining bilim salohiyati yetishmasligidir. Bu masalada yurtimizda kambag’allikga qarshi kurashish chora-tadbirlari olib borilmoqda.

“2020-yil aholini ijtimoiy himoya qilish borasida tub burilish yili bo‘ldi, desak, mubolag’a bo’lmaydi. Avvalo, aholining muayyan qatlami o‘rtasida kambag‘allik mavjudligini birinchi marta tan olib, uni qisqartirish bo‘yicha keng qamrovli ishlarni boshladik. Barcha tuman va shaharlarda, har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi – “temir daftar” tizimi joriy etildi. Qisqa muddatda bu tizim orqali 527 ming fuqaroning bandligi ta’minlandi. Bundan tashqari, o‘zini o‘zi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi hamda ko‘pgina cheklovlarning bekor qilinishi tufayli 500 ming nafar fuqaro mehnat faoliyatini qonuniy tarzda yo‘lga qo‘ydi. Dehqon xo‘jaligi va tomorqa er egalariga 300 milliard so‘m imtiyozli kredit va subsidiya ajratilgani ham qishloq aholisini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda yangi yo‘nalishga aylandi”. O‘zbekiston tarixida ilk bor kambag‘allik masalasi 2020 yilning 24 yanvarida O‘zbekiston Respublikasi prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida ko‘tarilib, mazkur mavzu ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy kun tartibiga aylandi. Aholi o’rtasida ijtimoiy nafaqa va turli moddiy yordam pulini to’lash yoki ularning miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal qilish mumkin. Bu-bir tomonlama yondashuv bo’lib, muommoni to’la bartaraf etish imkoniyatini bermaydi. Zero kambag’allikni kamaytirish uchun aholi orasida tadbirkorlik ruhini uyg’otish, aholining bilim salohiyatini oshirish, yangi bo’sh ish o’rinlari yaratish bo’yicha iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish qaratilgan bo’lishi kerak. Kambag’allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil bu- insonning intilishi, o’z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakat bo’lishi kerak. Kambag’allikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda kambag’allik darajasini aniqlash mezonlari, ijtimoiy ta’minotning minimal standartlari va me’yoriy asoslarini puxta ishlab chiqish lozim. Bu vazifalarni amalga oshirish orqali aholi daromadlarini oshirish mumkin. Aholi daromadini Andijon viloyati misolida ko’radigon bo’lsak, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizning iqtisodiy holatini o‘zida aks ettiruvchi statistik ma’lumotlar bilan tanishtirib o‘tsam.

- 2023- yilning yanvar-dekabr oyi yakunlariga ko‘ra Andijon viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 68 trln 223,4 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Bu ko’rsatkich 2022-yilning yanvar-dekabr oyi yakunlariga ko’ra 54 trln 464 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu esa undan oldingi yilga nisbatan 5,1 foizga oshganini ko’rsatadi.

Doimiy aholi soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko’ra 3 394 379 nafarni tashkil etadi. 2023-yilning yanvar-dekabr holatiga ko’ra aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi 20 313,6 so’mni tashkil qilgan, bu ko’rsatkich 2022-yil holatiga ko’ra 17 179,6 so’mni tashkil qilgan.

Bundan tashqari Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar holatiga ko’ra, 72,4 mln. AQSh dollarni tashkil etdi. Shundan eksport 51,4 mln. AQSh dollariga yetgan bo’lsa, import 21,0 mln. Dollari qiymatida qayt etilgan. Bu ko’rsatkichlar Andijon viloyatida aholi daromadi yildan-yilga o’sib borayotganini ko’rsatmoqda. Shuni takidlab aytish joizki aholi daromadini oshirish ularni bandligini ta’minlash uchun aholi orasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ularga kasb-hunar o’rgatish eng muhim vazifalar hisoblanadi. Mamlakatda aholi daromadlarining oshib borishi o‘z navbatida ular turmush sharoiti va sifatining bosqichma-bosqich yaxshilanib borishiga zamin yaratmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Aholi turmush darajasi tushunchasini ularning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta’minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi sifatida tariflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murijaatnomasi”, 30-dekabr 2020-yil, №271-272.
2. O’zbekiston respiblikasi Statistika Qo’mitasi ma’lumotlari http://stat.uz
3. Andijon viloyati Statistika Qo’mitasi ma’lumotlari http://andstat.uz
4. O’zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik bazasi http://lex.uz

BANKLAR FAOLIYATIDAGi KREDITLASHDA EHTIMOLLIK NAZARIYASINI QO‘LLASH

Muydinov Xusniddin Nuriddin o‘g‘li
TDIU Andijon fakulteti,
“Ijtimoiy-gumanitar fanlari” kafedrasi o‘qituvchisi.
Jo‘rayev Xusanboy Saydullo o‘g‘li
TDIU Andijon fakulteti, 1-kurs talabasi.
Jumaboyeva Maxliyoxon Mirzoxid qizi
TDIU Andijon fakulteti, 1-kurs talabasi**.**

Annotatsiya

Ushbu maqola iqtisodiy faoliyat sohalaridan birida – kreditlash sohasida ehtimollik nazariyasining rolini o'rganishga bag'ishlangan. Hozirgi vaqtda mavzuning dolzarbligi aniqlandi. Maqolaning mazmuni fandan foydalanishning asosiy